

O‘zbekiston
Metama’lumot
Iste’mol narxlari indeksi

Ishlab chiqilgan sana: 01.01.2019

Oxirgi yangilangan sana: 15.03.2024

0. Asoslar

0.1 Qonuniy asoslar

0.1.1 Statistika ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

2021-yil 11-avgustda Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo uchun Rasmiy statistika to‘g‘risidagi namunaviy qonunni asosida ishlab chiqilgan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

Ushbu Qonunning maqsadi rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikaning tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o‘rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikaning tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to‘g‘risida nizomga muvofiq, Statistika agentligi rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etilishini va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo‘lgan statistika uslubiyotlarining birligini ta’minlash; statistika ma’lumotlarini yig‘ishni, uy xo‘jaliklarining statistika kuzatuvlarini, ro‘yxatga olishlarni, bir marotabalik hisobga olishlarni, tanlanma so‘rovlarni va boshqa statistika kuzatuvlarini o‘tkazishni tashkil etish; barcha darajadagi foydalanuvchilarni belgilangan tartibda rasmiy statistika ma’lumotlari bilan ta’minlash; statistika maqsadlarida foydalanish uchun statistika registrlari va tasniflash tizimini yuritish uchun javobgar hisoblanadi.

Shu bilan birga, Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma’lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o‘tkazish va olingan birlamchi ma’lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo‘lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag‘batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni so‘rash hamda olish;

- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo'lgan statistika ma'lumotlarini yig'ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;
- statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;
- statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;
- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o'z vakolatlari doirasida qo'llash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to'g'ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

Statistika jarayonlarini boshqarish, shu jumladan statistika ma'lumotlarini tayyorlash va tarqatish xalqaro sifatni boshqarish modellari (GSIM, GSBPM, GAMS0)ga asosan ishlab chiqilgan milliy tartib-taomillarga muvofiq amalga oshiriladi.

0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko'ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma'lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bo'linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'zlarida mavjud bo'lgan statistika ma'lumotlarini va (yoki) ma'muriy ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo'yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo'yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

0.1.3 Respondentlar individual ma'lumotlarining maxfiyligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma'lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma'lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud muhokamasi, ma'muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo'jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

Statistika agentligi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Statistika agentligining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan, statistika organlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o'tkazish chog'ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to'liq ma'lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

Iste'mol narxlari indeksi (INI)ni shakllantirish faoliyati bilan Markaziy apparatda 4 ta, hududiy statistika organlarida – tanlovga tushgan hududlarda 1 tadan va hududiy statistika boshqarmalarining Narx statistikasi bo'limida 2-3 tadan mutaxassislar shug'ullanadilar.

Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha statistika ma'lumotlarini shakllantirish yuzasidan qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun xodimlar soni yetarli darajada.

Barcha xodimlar oliy ma'lumotga ega hamda har 2 yilda 1 martadan kam bo'lmagan davriylikda Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistika tadqiqotlari institutida tashkil etiladigan kurslarda o'qitiladi.

Har bir ish o'zni lokal tarmoqqa ulangan shaxsiy kompyuterlar bilan va tanlovga tushgan hududlarda 1 tadan elektron qurilma (planshet)lar bilan ta'minlangan.

Dasturiy ta'minot bevosita Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilib, zarur hollarda unga mavjud va yuzaga keladigan vazifalarga mos ravishda yangilashlar va o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi.

Statistika dasturining iste'mol narxлари statistikasi qismida nazarda tutilgan moliyaviy resurslar vazifalarni bajarish uchun yetarli darajada.

Elektron-hisoblash resurslarini himoyalash yetarli darajada ta'minlanadi.

1. Beg'arazlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy prinsiplari, jumladan beg'arazlik va xolislik hisoblanadi.

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo'limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo'lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo'ysunadi.

Mazkur statistik ma'lumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yo'l qo'yilmagan va kasbiy mustaqillik to'liq ta'minlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi e'tiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslari, o'quv-amaliy seminarlarda ishtirokini ta'minlash orqali ta'minlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan o'quv kurslarida ma'ruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini e'lon qilib borish tashkil etilgan.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikaning tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta'minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikaning tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma'lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish,

ma'lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog'lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy ma'lumotlar to'plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma'lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika ma'lumotlarining sifati to'g'risida metama'lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

1.1.3 Statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Statistika agentligi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalarini va tartibining oshkoraligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari tushunarlik va shaffoflik. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. “Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Statistika agentligi rasmiy veb-saytiga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Statistika agentligi rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Hukumat Statistika agentligi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma'lumotlarni tarqatishda statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi (“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Agentlik direktori, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

1.2.3 Statistik ma'lumotlarning atributlari (belgilari)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Statistika agentligi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Statistika agentligi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Statistika agentligi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsipiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Statistika agentligi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Uslubiyat

2.1 Konsepsiya va tushunchalar

2.1.1 Konsepsiya va tushunchalar

Iste'mol narxlari indeksi (INI) – inflyatsiya darajasini ifodalaydigan asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, o'rtacha iste'molchi xarid qiladigan tovar va xizmatlarning o'zgarmas to'plami qiymatining umumiy o'zgarish darajasini ifodalaydi, ya'ni, ma'lum davr mobaynida tovar va xizmatlar iste'moli miqdorining o'zgarmas bo'lgan holida, aholining iste'mol xarajatlari umumiy miqdorining o'zgarishini ifodalaydi. Iste'mol narxlari indeksida mamlakatning barcha hududlari bo'yicha xilma-xil tovar va xizmatlar narxlarining harakati o'rtachalashtiriladi.

INI faqatgina narxlar o'zgarishi to'g'risidagi ko'rsatkich hisoblanadi. Shu bilan birga, ko'rsatkich aholining joriy iste'mol tuzilmasidagi o'zgarishlarni hisobga olmaganligi sababli, turmush qiymati ko'rsatkichi hisoblanmaydi.

O'zbekiston Respublikasida iste'mol narxlari indeksini hisoblash tizimi 1994 yilning yanvar oyidan boshlab Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ)ning texnik ko'magi asosida joriy etilgan.

Bugungi kunda, INIni hisoblash "Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha qo'llanmaga: Nazariya va amaliyot" (XVJ, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevrostat, BMT YeIK, Butunjahon banki va XMT, 2020- yil) asosan (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2022- yil 27- sentabrdagi 33-son qarori bilan tasdiqlangan) Tovar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish va iste'mol narxlari indeksini xisoblash bo'yicha uslubiy nizomga asosan shakllantiriladi.

Yangilangan metodologiya 2023- yilning yanvardan amaliyotga joriy qilindi. Asosiy o'zgarishlar INI shakllantirishda hududiy salmoq vaznlarni joriy qilish, hududlar tanlanmasini maqbullashtirish hamda kuzatish imkoni bo'lmagan narxlarni shartli hisoblashni amalga oshirish masalalarini qamrab oldi.

2.2 Statistika qamrov

2.2.1 Statistika qamrov

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Institutsional birliklar qamrovi: uy-xo'jaliklarining daromad va xarajatlari kuzatuvini bo'yicha tanlanma chegarasi 2010 yilda o'tkazilgan aholini mikro ro'yxatga olish natijalariga asoslangan. Tanlanma o'lchovi 16 000 uy-xo'jaliklarini qamrab oladi. Tanlanma qamrovi umumiy uy-xo'jaliklari hajmining 0,2%ini tashkil qiladi. Har oyda 1339 ta yangi uy-xo'jaliklarida so'rov o'tkaziladi. Mamlakatning har bir hududida, shuningdek, shahar va qishloq joylarda joylashgan turli daromad darajasiga ega uy xo'jaliklarini qamrab olish maqsadida, uy xo'jaliklar sonini aniqlab olishda tegishli usuldan foydalaniladi.

Geografik qamrov: Uy xo'jaliklari xarajatlari va iste'mol narxlari kuzatuvlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar hamda Toshkent shahri hududlarida o'tkaziladi. Narx ma'lumotlari iste'mol bozorlarining tovar va xizmatlar bilan to'yinganlik darajasi, shuningdek, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va geografik joylashuviga qarab tanlab olingan viloyat markazlari, tuman va shaharlar (2023- yil holatiga 67 ta tuman, shahar), Nukus hamda Toshkent shaharlarida yig'iladi. Narx ma'lumotlari kuzatuvini amalga oshiriladigan hududlar tanlovi ulardagi aholi soni va chakana tovar aylanmasi ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Tovarlar qamrovi: INI hisoblash uchun 510 turdagi tovarlar va xizmatlar bo'yicha narxlar to'planadi, ulardan 170 tasi oziq-ovqat, 250 tasi noziq-ovqat mahsulotlar va 90 tasi xizmatlardir. INI tovarlar va xizmatlarning barcha asosiy guruhlarini o'z ichiga oladi va har oyda 120 000 dan ortiq narx kotirovkalarini qamrab oladi.

2.2.1.2 Statistika qamrovdan istisnolar

Aholi qamrovi: harbiy qismlar, qamoqxona, monastirlar, qariyalar uyi va talabalar uchun mo'ljallangan yotoqxona kabi muassasalarda yashovchi shaxslar uy xo'jaliklari kuzatuviga qamrab olinmaydi.

Tovarlar qamrovi: INIni shakllantirishda ishlatilgan mahsulotlar, xususi uy-joy qiymati, shuningdek, shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxlari hisobga olinmaydi.

Boshqalar: INIni hisoblashda obligatsiya va aksiya kabi moliyaviy aktivlarni sotib olish hisobga olinmaydi, chunki bular hech qanday mahsulot turiga kirmaydi va uy xo'jaliklari a'zolarining shaxsiy ehtiyoj va talablarini qondirishga qaratilmagan. INIni hisoblashda chet el valyuta birliklari bilan bog'liq oldi-sotdildardan ham foydalanilmaydi.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Noqonuniy mahsulot va xizmatlar, masalan, foxishabozlik va giyohvand moddalar savdosi INIga kiritilmagan.

2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

Uy xo'jaliklarida tanlama kuzatuvlar o'tkazish metodologiyasi Jahon Banki va BMT YeIKning tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan qo'llanmaga asoslangan.

2000 yilning aprel oyidan uy xo'jaliklari kuzatuvlariga mahalliy talablarga moslashtirilgan Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichiga (MIIT) asoslangan milliy tasniflagich joriy qilingan.

INIning umumlashtirishda BMTning xalqaro standarti – Classification of Individual Consumption According to Purpose (COICOP) 2018ga asoslangan O'zbekiston Respublikasi Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi 2018 (MIIT 2018)dan foydalaniladi.

2.4 Hisobga olish asoslari

2.4.1 Baholash

INIda salmoq vaznlar iste'molchining amaldagi narxlar (tarif) bo'yicha baholanadigan iste'mol xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida shakllanadi (savdo, transport ustama xarajatlari, qo'shimcha qiymat solig'i, aksiz va boshqa soliqlar bilan).

INIning hisoblashda foydalaniladigan narxlar ham xaridor narxlari hisoblanadi va barcha ustamalar va soliqlarni o'z ichiga oladi. Ya'ni, xaridor tovar (xizmat) uchun amalda to'laydigan narx ro'yxatga olinadi.

Mahsulotlarning xususiyatlari o'z ichiga tovar va xizmatni identifikatsiyalash va assortiment siljishlarini istisno etish imkonini beradigan narxni aniqlash parametrlarini o'z ichiga oladi.

2.4.2 Hisobga olish asosi

Tovar va xizmatlarning aynan xarid qilish vaqtidagi narxlari ro'yxatga olinadi. Muayyan turdagi xizmatlar bo'yicha (masalan, elektr-energiya, gaz va boshqalar) hisob-kitoblar hisoblash (nachisleniye) tamoyili asosida amalga oshiriladi.

2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

Ushbu amaliyotlar MHT-2008 tamoyillariga to'liq mos keladi.

3. Aniqlilik va ishonchlilik

3.1 Birlamchi ma'lumotlar

3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Uy xo'jaliklari kuzatuvi qismi bo'yicha: istemol xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar iste'molchining xarid qilishdagi o'zgaruvchan faolligi va xarakatlarining har yillik ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

Uy xo'jaliklarining tanlanma kuzatuv to'plamini shakllantirish ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda, har bir hudud bo'yicha alohida shahar va qishloq uchun tanlovning birlamchi birliklari (TBB) soni aniqlanadi. Tanlovning birlamchi birligi sifatida shahar qatlamlarida mahallalar, qishloq qatlamlarida – qishloq mahallalari va qishloqlaridan foydalaniladi.

Kuzatuvlarda tanlovning birlamchi birliklaridan yarim yil davomida foydalaniladi, shundan so'ng yangilari bilan to'liq almashtiriladi (100% li yarim yillik rotatsiya). Shu tarzda, bir yil davomida ikki marta TBB tanlovi amalga oshiriladi. Tanlanadigan TBB soni har yarim yil uchun 309 tani, bir yilda 618 ta TBBni tashkil etadi. Har bir hudud (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) uchun shu kabi raqamlar mos ravishda o'rtacha 18 tadan 28 tagacha va yiliga 36 tadan 56 tagacha TBBni tashkil etadi.

TBB ro'yxatini shakllantirishda borish qiyin bo'lgan va borib bo'lmaydigan TBB ro'yxatga kiritilmaydi.

2.2.1.2 bandidagi shartlardan tashqari barcha rezidentlar kuzatuv qamroviga olinadi. Bu istisnolar kuzatuv natijalari tanlovi reprezentativligi va haqqoniyligiga ta'sir etmaydi.

Uy-xo'jaliklari tanlanma kuzatuvi anketasi ma'lumotlarning dolzarbligini hisobga olib, doimiy ravishda qayta ko'rib chiqiladi.

Narx ma'lumotlarini yig'ish bo'yicha: iste'molchilar uchun ommabop, miqdori, turi hamda savdo va pullik xizmat ko'rsatish ob'ektlarining geografik qamrovi, har bir tovar hamda xizmatlarga aloqador, shuningdek, tanlangan ob'ektlar o'rtasida narx va tariflarni taqsimlash, narx va tariflar kuzatuvi tanlovi uchun tovar va xizmatlar moxiyatini aks ettiradi.

Yangi tovar va xizmatlar aholi umumiy iste'mol xarajatlarining 0,1% dan kam bo'lmagan ulushni tashkil qilgandagina iste'mol narxlari kuzatuvi to'plamiga kiritiladi. Ba'zi hollarda kuzatuvlar to'plamiga aholining umumiy iste'mol xarajatlarining ozroq ulushiga ega bo'lgan tovarlar (xizmatlar) kiritilishi mumkin. Bularga, masalan, ma'lum bir mintaqaga yoki umuman respublika uchun tovar (xizmat)ning ijtimoiy ahamiyati, tarmoq bo'limlari tomonidan statistik hisob-kitoblar o'tkazish uchun tovar (xizmat) bo'yicha INI to'g'risidagi ma'lumotlarga ehtiyoj va boshqalar kiradi.

Narx ma'lumotlarini yig'ish batafsil ravishda amalga oshirilishi - har bir davr uchun ma'lumotlarning taqqoslanishini ta'minlaydi.

INI tizimini tartibga solishda foydalaniladigan xalqaro standartlardagi yangi tartib-qoidalarni aniqlash maqsadida kuzatuvlar olib borilmoqda.

3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Narx statistikasi kuzatuvlari olib boriladigan muddat oylik e'lon qilinib borilayotgan indekslar davriyligi uchun yetarlidir. INIning hisoblash uchun narxlarni ro'yxatga olish har oyning 10-sanasidan 20-sanasigacha amalga oshiriladi.

Hududiy qamrov hamda tanlanma kuzatuv ob'ektlari umumiy hisobda talablarga to'liq javob beradi. Asosiy ma'lumotlar tayanch va hisobga olish davri bilan muvofiqlashtiriladi.

3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Narxlarni ro'yxatga olish grafigi shunday tartibda tashkil etilganki, har bir tovar va xizmat turi narxlari to'g'risidagi axborotlarni to'plash orasidagi interval kalendar oyini tashkil etadi.

Yakuniy ma'lumotlar MTUT tavsiyalariga muvofiq INIning shakllantirish va keyinchalik ko'rsatkichni taqdim etish uchun zarur bo'lgan muddatlarda taqdim etiladi.

3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Tanlov bo'yicha amalga oshirilgan har bir kuzatuvdagi xatoliklar to'g'risidagi ma'lumotlar muntazam ravishda kuzatib boriladi. Narxlar o'zgarishi, noto'g'ri tasniflash va ekstremal belgilar to'g'risidagi ma'lumotlar doimiy tarzda tekshirib boriladi.

Uy xo'jaliklari xarajatlari kuzatuv jarayonida javoblar borasida xatoliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, uy xo'jaliklari spirtli ichimliklar guruhiga mansub mahsulotlarga bo'lgan xarajatlarni pasaytirib ko'rsatishlari mumkin. Ushbu sababga ko'ra spirtli mahsulotlar chakana savdosi to'g'risidagi ma'lumotlarga asosan uy xo'jaliklari kuzatuv ma'lumotlarida o'zgartirishlar amalga oshiriladi.

Narxlar to'g'risidagi barcha noodatiy ma'lumotlarda, shuningdek, ushbu ma'lumotlarda yuz bergan tub o'zgarish sabablari avvalgi davrlardagi ko'rsatkichlar bilan aniqlashtirilgan holda tekshiriladi.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar

Savdodan yo'qoladigan mavsumiy tovarlar hisobi "shartli o'rtacha ko'rsatkich"ni hisoblash usuli bo'yicha shakllanadigan "shartli narxlar"dan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Qolgan tovarlar va xizmatlar bo'yicha vaqtinchalik mavjud bo'lmagan narxlar ham shartli hisoblanadi. Tanlab olingan tovar (xizmat) turi savdodan to'liq yo'qolganda yoki savdo (xizmat ko'rsatish) obyekti yopilganda tanlov shartlari va tovar (xizmat) xususiyatlariga muvofiq almashtirish amalga oshiriladi.

Namuna tovar va xizmatlar hamda savdo nuqtalari va xizmatlar sohasi obyektlari tanlanmasi har yili aktualizatsiya qilinadi.

Yangi tovar va xizmatlarning iste'mol narxlari kuzatuv to'plamiga kiritilishi alohida mezonga ko'ra, aholi umumiy iste'mol xarajatlari ulushida uning salmog'i 0,1% dan ortiq bo'lgan holdagina amalga oshiriladi. Istisno holatlari bo'lishi mumkin (3.1.1.-bandda tavsiflangan).

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar

Salmoq vaznlarni aniqlashda uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol uchun qilingan sarf-xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi.

Tovar va xizmatlarning ro'yxatga olinadigan qiymatlari iste'molchining to'lov shaklidan qat'iy nazar sotib olish jarayonidagi iqtisodiy xarajatlarini aks ettiradi.

Individual narx indekslarini hisoblash o'rtacha geometrik qiymat asosida amalga oshiriladi. Qisqa muddatli narx indekslarini hisoblashda tayanch davr sifatida o'tgan oy, uzoq muddatli indekslar uchun esa o'tgan yilning dekabr oyi qabul qilingan. Bundan tashqari o'tgan yilning mos oyiga hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan, shuningdek, choraklik (avvalgi chorakka va o'tgan yilning mos choragiga nisbatan) narx indeksleri ham hisoblanadi.

O'tgan yilning mos davriga (oyga, o'sib boruvchi ko'rstakich davri) nisbatan narx indeksini hisoblash baza sifatida o'rnatilgan hisoblash nuqtasi yoki tayanch davr (t-2)ga ega bo'lgan davomiy dinamik qatorlarni shakllantirish uchun oylik narx indekslarini o'zaro bog'lashni nazarda tutadigan bazis usulida amalga oshiriladi.

Statistik maqsadlarda turli tayanch davrlarga nisbatan narx indeksleri shakllantirilishi mumkin (masalan, 2010- yil = 100%, 2020- yil = 100% va h.k). Ushbu ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun yagona tayanch davrga keltirilgan "bog'langan" zanjir indekslaridan foydalaniladi.

Statistika agentligida indekslarni umumlashtirish modifikatsiyalangan Laspeyres formulasi asosida amalga oshiriladi.

Narxlar uchun tayanch davr – o'tgan yilning dekabr oyi. Indeks qatorlarining uzluksizligini ta'minlash maqsadida hisobot yilidan oldingi yilning dekabr oyida tovar va xizmatlarning eski va yangi to'plami bo'yicha narxlar to'planadi. Vaznlar va indekslar tayanch davrlarini bog'lash koeffitsientlar yordamida amalga oshiriladi.

2023- yildan boshlab, hududiy vaznlar tuzilmasi joriy qilindi. Hududlar bo'yicha salmoq vaznlar tuzilmasi tegishli hudud aholisining mavjud iste'mol xarajatlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi. Hudud bo'yicha tovar va xizmatlar salmoq vaznlarining yig'indisi hududning respublika iste'mol xarajatlari tuzilmasidagi ulushiga teng. Salmoq vaznlari tuzilmasi shunday shakllantirilganki, ularning barcha pozitsiyalar bo'yicha hududlardagi salmoq vaznlari yig'indisi 1,00000 ni tashkil etadi.

INIdagi salmoq vaznlar har yili yangilanadi va barcha pozitsiyalar bo'yicha yil davomida o'zgarmas hisoblanadi.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash

Hududlardan olingan ma'lumotlar boshqa hudud ma'lumotlari, shuningdek, amaldagi ma'muriy jihatdan tartibga solinuvchi mavjud ma'lumotlar bilan solishtirgan holda tahlil qilinadi. Shu bilan bir qatorda ma'lumotlar boshqa manbaalardan olingan ma'lumotlar bilan ham taqqoslanadi (masalan, respublika hududida sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining tovarlari narxlari yoki Statistika dasturiga muvofiq amalga oshiriladigan narxlar monitoringi ma'lumotlari bilan solishtiriladi).

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

Ma'lumotlarni boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar bilan o'zaro taqqoslash ishlari amalga oshiriladi (3.4.1ga qarang). Statistika agentligi zarur hollarda statistik tafovutlarni tekshiradi.

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

Ma'lumotlarni boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar bilan o'zaro taqqoslash ishlari amalga oshiriladi (3.4.1ga qarang). Statistika agentligi zarur hollarda statistik tafovutlarni tekshiradi.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

INI bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlar qayta ko'rib chiqilmaydi.

Salmoq vaznlarning retrospektiv tahlili o'zgargan vazn ma'lumotlarining INIga ta'sir darajasini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

2021 yildan boshlab INI O'zR MIIT 2018 tasniflagichi asosida shakllantiriladi. Uzoq muddatli indekslar hisob-kitoblarini amalga oshirish maqsadida 2020 yil INI O'zR MIIT 2018 guruhlarini bo'yicha retrospektiv hisob-kitoblari amalga oshirildi.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik

Ma'lumotlar tarqatishning tan olingan xalqaro standartlar talablariga mos ravishda INI hisoblash har oyda amalga oshiriladi.

4.1.2 O'z vaqtidaligi

Oylik ma'lumotlarni tarqatish Statistika dasturi asosida MTUT tavsiyalarida keltirilgan muddatlar va ma'lumotlarni chiqarish taqvimiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik

Respublika bo'yicha INI quyidagi kompleks xarajatlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- barcha tovar va xizmatlar;
- oziq-ovqat mahsulotlari;
- nooziq-ovqat mahsulotlari;
- xizmatlar.

To'plamdagi barcha tovarlar va xizmatlarning INI O'zR MIIT-2018 tasniflagichining 13 ta asosiy bo'limlari bo'yicha umimlashtiriladi. Har bir bo'lim O'zR MIIT-2018 tasniflagichiga muvofiq guruhlar, guruhchalar va tovarlar bo'yicha ma'lumotlarga ajratilgan.

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

Oylik INI dinamik qatorlari ketma-ketligi 1994- yildan mavjud. 2003- yildan 2017- yilga qadar INIning shakllantirishda meva-sabzavotlar guruhining o'zgaruvchan vaznlaridan foydalanilgan. 2018- yildan e'tiboran esa o'zgarmas vazn ma'lumotlari asosida hisoblanmoqda. 2021 yildan INI O'zR MIIT 2018 tasniflagichi asosida e'lon qilinadi.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

Statistik ma'lumotlarni boshqa manbalardan olingan statistik ma'lumotlar bilan muvofiqligi ta'minlanadi.

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

INI bo'yicha ma'lumotlar yakuniy bo'lib hisoblanadi va u qayta ko'rib chiqilmaydi. Hisob-kitoblarda vaznlarni yangilash davriyligi yillik va yetarli darajada barqaror bo'lib hisoblanadi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash

INI bo'yicha ma'lumotlar yakuniy bo'lib hisoblanadi va u qayta ko'rib chiqilmaydi.

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish

INI bo'yicha ma'lumotlar yakuniy bo'lib hisoblanadi va u qayta ko'rib chiqilmaydi.

5. Qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish

INI ma'lumotlari «Tovar va xizmatlarning iste'mol narxlarini indeksi» byulleteni shaklida nashr etilib, shuningdek, manfaatdor foydalanuvchilarning so'rovlariga asosan bosma yoki elektron shaklda ham taqdim etiladi.

Bundan tashqari indekslar to'g'risidagi ma'lumotlar Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytining «Ochiq ma'lumotlar» bo'limida ham mavjud (<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/prices-and-indexes-2#> va <https://stat.uz/uz/default/press-relizlar/>). Bundan tashqari, batafsil ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasining «SIAT» statistika Portalidan (<https://siat.stat.uz>), OPEN DATA doirasida ochiq ma'lumotlar portalidan <https://data.gov.uz>, hamda National Summary Data Page (NSDP)-Uzbekistan <https://nsdp.stat.uz/> rasmiy sahifasidan olish mumkin.

5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Chop etilmaydi.

5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Chop etilmaydi.

5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Chop etilmaydi.

5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

Chop etilmaydi.

5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Foydalanuvchilarning maxsus so'rovlari bo'yicha jadvallar.

5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

Narx indeksleri to'g'risidagi ma'lumotlar Statistika agentligining rasmiy saytining «Ochiq ma'lumotlar» bo'limida ham mavjud (<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/prices-and-indexes-2#>).

Shuningdek, batafsil ma'lumotlarni OPEN DATA doirasida Ochiq ma'lumotlar portalidan ham olish mumkin <https://data.gov.uz>.

Oylik byulleten "Iste'mol narxlari indeksi".

5.1.3. Ma'lumotlarni e'lon qilish jadvali

Oylik yakunlar Statistika dasturiga muvofiq MTUT tavsiyalari va Ma'lumotlarni chop etish kalendarida belgilangan muddalarda tarqatiladi.

5.1.4 Bir vaqtning o'zida e'lon qilish

Ma'lumotlar bir vaqtning o'zida barcha manfaatdor foydalanuvchilarga Internet (<https://stat.uz/images/uploads/reliz2024/pressrelizuznarx29022024uz.pdf>) va statistik nashrlar vositasida tarqatiladi.

5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonuni, Statistik ma'lumotlarni tayyorlash va tarqatish ishlarini tashkil etish reglamenti va boshqa normativ xujjatlar asosida foydalanuvchilar so'roviga asosan statistik ma'lumotlar o'rnatilgan tartib asosida taqdim etiladi.

Statistik ma'lumotlarni tarqatish yuridik va jismoniy shaxslarning yozma murojaatlariga, shuningdek, tomonlarning ikki tomonlama kelishuviga asosan statistik to'plamlar, byulletenlar, tezkor ma'lumotlar bosma nashr yoki elektron shaklda ham amalga oshiriladi.

5.2 Metama'lumotlar

5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni tarqatish

Iste'mol narxlari bo'yicha statistik ko'rsatkichlar hisob-kitoblarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom <https://lib.stat.uz> veb-saytiga joylashtirilgan.

5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko'rsatish

5.3.1 Aloqa bog'lash bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

Agentlikning rasmiy nashrlarida statistik ma'lumotni tayyorlashga mas'ul mutaxassislar bilan aloqa qilish uchun manzillar (pochta, telefon, faks, elektron manzil va boshqa) ko'rsatiladi.

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Narx kuzatuvlari amalga oshiriladigan iste'mol tovarlari va xizmatlari ro'yxati yangilangan (2024- yil holatiga 510 ta tovarlar va xizmatlar). Iste'mol narxlarini kuzatish uchun tanlab olingan barcha hududlarda planshet qurilmalaridan foydalangan holda CAPI texnologiyasi joriy qilindi. 2023- yildan boshlab, INIn shakllantirishga to'plamning hududiy vaznlari joriy qilindi. Vaqtinchalik savdoda bo'lgan tovarlar bo'yicha "shartli narxlar"ni hisoblash mexanizmi joriy qilindi.

Bir qator yirik savdo korxonalaridagi narxlarni to'plashda web-scraping texnologiyasidan foydalanish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, soliq organlarining onlayn nazorat kassa mashinalari axborot tizimi ma'lumotlaridan foydalanila boshlandi.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Kelgusidagi rejalar:

- sifat va mavsumiy o'zgarishlarni to'g'rilash mexanizmini takomillashtirish;
- turli manbaalardan narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash amaliyotini takomillashtirish.

9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O'rta muddatli

Narxlar kuzatuvi uslubiyotini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalar va yetakchi xalqaro tajribalaridan imkon darajasida foydalangan holda o'rta muddatli istiqbolli chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlari rejalashtirilmoqda. Xususan, "Skanerlash" usuli yordamida "pilot"

shaklidagi kuzatuvlarni amalga oshirish va soliq xizmati ma'lumotlari bazasi bilan integratsiyani yo'lga qo'yish. INI shakllantirish doirasida Big Data dan foydalanish istiqbollari baholanmoqda.

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko'makka talab – Qisqa muddatli

Yillik Statistika dasturi doirasida moliyalashtirilgan.

9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko'makka talab – O'rta muddatli

INIning hisoblashda muqobil ma'lumotlar manbaalaridan foydalanish bo'yicha boshqa davlatlar tajribalari va xalqaro ekspertlar tavsiyalarini o'rganishga ehtiyoj mavjud.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.O.:	Umarov Muxtor Turayevich
Lavozim:	Boshqarma boshlig'i
Bo'linma:	Narxlar statistikasi boshqarmasi
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi
Manzil:	Mustaqillik 63
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	+ 998 71 202-80-36
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	M.Umarov@stat.uz